
Tuman hokimi maktabdagi qurilish ishlari bilan tanishdi

????Bugun Rishton tumani hokimi va sektor rahbarlari yangi o'quv yiliga bitkazilishi ko'zda tutilayotgan maktablarda bo'lib, qurilish ishlari bilan yaqindan tanishishdi.

????Xususan, chekka hududda joylashgan Yoyilma MFYdagi 25 - umumta'lim maktabida amalga oshirilayotgan qurilish ishlari ko'zdan kechirildi.

Ayni damda 25 - umumiy o'rta ta'lim maktabida kapital ta'mirlash ishlari boshlab yuborilgan. Yangi o'quv yilida mazkur maktab zamonaviy ko'rinishga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, qo'shimcha bino qurilishi natijasida yana 120 nafar o'quvchini qamrab olish imkoniyati yuzaga keladi.

2022-08-04 14:19:58